

Notiqlik –tarbiya va muloqotning o'zagi.

Baxtiyorova Nurxon

JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Til-shuncha sharafi bilan nutqning quolidir.

Agar nutq nomaqul chiqsa-tilning ofatidir.

(Alisher Navoiy)

Notiqlik-san'atning eng qadimiy turlaridan biridir. Ko'plab fanlarning beshigi bo'lgan qadimgi Yunoniston notiqlik san'ati sohasida ham jahon madaniyati tarixining eng yorqin sahifalarini yaratdi. Notiqlik san'ati haqidagi ilk malumotlarni Gomerning << Iliada >> va << Odissey >> nomli dostonlaridan olish mumkin. Gomer dostonlari malumotlariga qaraganda qadimgi Yunoniston tuprog'ida eramizdan avval ana shu davrlarda Nestor, Menelay, Odissey, Axill kabi bir talay mashhur notiq bo'lganlar. Notiqning nutqi birinchi navbatda ta'sirchan bo'lishi, auditoriyani o'z ortidan ergashtirib keta olishi uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim deb o'ylaysiz?

Notiqning ta'siri quyidagi omillarga bog'liq. Nutq jarayonida ana shunga rioya etilmasa, maqsat oqibatsiz tugaydi. Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi, ta'sirchanligi, jo'yaliligi, boyligi, ifodaviyligi, sodaligi qisqaligini talab etuvchi omillar uning sifatini tashkil etadi. Bularni nutqda to'g'ri qo'llay bilmagan notiq yutqazadi. Nutq paytida notiq bilan tinglovchilar o'rtasida bir-birini tushunishi va yaqinlik ancha jonli bo'lishi lozim. Notiq o'zini tutishi, xarakteri, so'zlashi, fikr yuritishi bilan tinglovchini o'ziga qaratishi lozim.

Notiq o'zining so'zi bilan tinglovchini o'ziga jalb qilishi tinglovchida qayta uchrashish ishtiyoqini uyg'otish bilan xayrlashish notiq muvaffaqiyatining garovidir. Nutq davomida tinglovchilardan ayrimlari tez-tez soatiga qarab qo'ysa, esnab o'tirsa bilingki notiq aybdor.

Demak, notiqda fikrlash qobilyati bor, lekin omma e'tiborini tortish iqtidori yo'q. Zero, mashhurlar ko'p, lekin ularning manzur va maqbullari kam. Buyuklar ko'p bo'lgan, lekin ularning suyuklilari kam. Ko'rinib turibdiki, insonning suyuk bo'lishi ba'zan nutqqa ham chambarchas bog'liq, deb o'ylayman.

Kaykavusning XI asr Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi << Qobusnoma >> sidan ham notiqlik sharhlari uchun alohida bob ajratilganligini bu san'atga bo'lgan qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi.

Qadimda O'rta Osiyoda notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug'langan. Bu ikki san'atni mukammal egallagan kishilargina yuqori lavozimlarga saylanganlar.

Umuman, yetuk shaxs bo'lish uchun, albatta notiqlik san'atini egallash shart qilib qo'yilgan. Grek notig'i Demosfen va Rim notiqchilari Siseron, Kvintilian, Aristotel kabi nazariyotchilarining hayotlari bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika va notiqlik san'atining o'ziga xos maktabini yaratdilar.

Bugungi kunda deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida nutq madaniyati va notiqlik san'ati fan sifatida o'qitiladi, biroq davlat va nodavlat radio, televideniye boshlovchilari ayrim muhbir va sharhlovchilar faoliyatida nutqiy nuqsonlar mavjud. Bu muammoning yechimi borasida hozirgi yoshlar o'rtasida nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Notiqlik san'ati odamlarni jalb qilishi va ularni boshqarishni o'rgatadi, bu ko'plab kasblar uchun amalda zarurdir. Biroq mukammal notiq tug'ilmaydi, shuning uchun ritorikani o'qitish qadim zamonlardan hozirgi kungacha dolzarb bo'lib kelgan.

Ritorikaning inson hayoti uchun ma'nosi o'zgarishsiz qolmoqda. Notiqlik san'ati avvalambor, o'ziga qanday ishonishni tinglovchilarga qanday qilib singdirishni o'rgatadi. Yaxshi maruzachilar istalgan sohada, xoh o'z ishlarida bo'lsin, xoh o'qitishda bo'lsin, xohlagan yuksaklikka erishadilar. Ritorika yangi imkoniyatlar uchun ko'plab eshiklarni ochadi, ammo notiq bo'lish bir kunda amalga oshmaydi. Ushbu san'atni o'zlashtirish uchun ritorikani o'zlashtirish kerak, uni mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan sinflarda bajarish mumkin. Notiqlik mahorati tinglovchilar bilan gaplashadigan har qanday odamga kerak. Rahbarlar, savdo menejerlari, yangi boshlovchilar, ayniqsa talabalar.

Tarixdan malumki, G'arb bilan Sharq davlatchiligida notiqlik san'ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Temur va temuriylar davlatida ham notiqlik san'ati-so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan, notiqlik maktablari ochilgan.

Notiqlik hozirgi davr tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir. Bu muammoni hal qilish umummadaniyatimiz taraqqiyoti, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, o'rta maktablar va umuman dars o'tish jarayonini yaxshilash bilan ham bog'liq. Notiqning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tinglovchilar qalbiga yo'l topish, ular bilan aloqa o'rnatishga bog'liq, zero muloqot jarayoni, birinchi navbatda odamlar o'rtasida axbarot almashishdan iborat bo'lib, undan ko'zlangan maqsad uzatilayotgan va qabul qilinayotgan axbarotning tushunarligini ta'minlashdir. Buning uchun esa notiq va tinglovchi yoki

suhbatdoshlar bir-birini hamkor sifatida qabul qilishi va shu asosda o'zaro tushunish muhitini yaratish lozim.

Auditoriya bilan ruhiy,hissiy,aqliy muloqot o'rnatishning bir qator usullari mavjud. Buning uchun birinchi navbatta muloqot o'rnatishga xalaqit beruvchi to'siqlarni bartaraf etish lozim. Notiqlik san'atining birinchi qoidasiga binoan notiq faqat o'ziga bog'liq ,o'zi hurmat qilgan kishilargagina murojaat etishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,notiqlik san'ati juda keng qamrovli tushunchadir.Uni bir qolibga solib o'rganish ,aniq chegaralash mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.<<O'zbek nutq madaniyati>> Po'lat Nosirov Toshkent 2004

2.<<Notiqlik san'ati>> M.Ilsroil,L.I.Toshmuhamedova Toshkent 2019

3. Internet malumotlari